O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QIZIRIQ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

190800, Qiziriq tumani, Ibn-Sino ko`chasi, 13-uy, tel:0(376)3591339, fax: 0(376)3591575, qiziriq_t1@exat.uz

2022 - yil 26 - dekabr 401-8-113-Q/22 Qiziriq tuman hokimligi

Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli avtomototransport vositalari va ularga tirkamalar tegishli tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish quyidagi davriylikka muvofiq belgilansin:

a) tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

b) ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

v) ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

g) tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

d) navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat'iy nazar, ularni DYHXX organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

3. Mazkur qarorning 2-bandi “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta — 1-martdan — 30-iyunda;

ikkinchi marta — 1-sentyabrdan — 31-oktyabrgacha o‘tkazilsin.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan — 31-dekabrgacha o‘tkazilsin.

4. Tumanda texnik ko‘rikni o‘tkazish uchun tuzilgan komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 31-yanvardagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-son qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi nazarda tutilsin.

6. Majburiy texnik ko‘rik davomida komissiya tarkibida ish olib boruvchi xodimlarning doimiy ish joylaridagi oylik ish haqlari saqlanib qolinsin.

7. Mazkur qaror tuman “Taraqqiyot” gazetasida rasman e'lon qilinsin va

hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari R.Hamrayev zimmasiga yuklansin.

Туман хокими  **Pardayev.R.U**